



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BUYRUQ

“21” 12 2021 yil

№ 544

Samarqand sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va
o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining
2021-yil 29-noyabrdagi 506-sonli
buyrug‘i ijrosi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 29-noyabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ijtimoiy-ma‘naviy muhit holatini yanada barqarorlashtirish to‘g‘risida”gi 506-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1 O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 29-noyabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ijtimoiy-ma‘naviy muhit holatini yanada barqarorlashtirish to‘g‘risida”gi 506-sonli buyrug‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Topshiriq ijrosini yuqori darajada ta‘minlash hamda oliy ta‘lim muassasalarining ta‘lim sifati va ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan vazirlik va oliy ta‘lim muassasalari mas‘ul rahbar xodimlaridan iborat hududlar kesimidagi ishchi guruhlar tarkibi 1-ilovaga muvofiq ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Institutda ta‘lim sifatini oshirish va ijtimoiy-ma‘naviy muhit holatini yanada barqarorlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq, institutning ichki tartib qoidalari 2-ilovaga muvofiq, institutning odob-axloq kodeksi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor (F.Ro‘ziqulov), yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektor (O.G‘aybullayev), moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor (Z.Kuziyev), ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i (M.Ismatova), fakultet dekanlari (A.Ismailov, B.Primov, O.Yusupov, S.Erkinov, A.Yaxshiyev, D.Jurayev, H.Mamaniyozov, S.Bozorov)larga:

Ishchi guruhining faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; vazirlik buyrug‘ining 2-ilovasida keltirilgan namunaviy chora-tadbirlar rejasi asosida institutning “Ta‘lim sifatini oshirish va ijtimoiy-ma‘naviy muhit holatini yanada barqarorlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi”ni tayyorlash va o‘rnatilgan tartibda tasdiqlash;

Vazirlik buyrug‘ining 3-ilovasida keltirilgan “Oliy ta‘lim muassasasining namunaviy Ichki tartib-qoidalari” hamda 4-ilovasida keltirilgan “Oliy ta‘lim



muassasasining namunaviy Odob-axloq kodeksi” asosida institutning o‘ziga xos xususiyatlari va sharoitlariga mos bo‘lgan yangi tahrirdagi “Ichki tartib-qoidalari” hamda “Odob-axloq kodeksi”ni tasdiqlash uchun navbatdagi institut Kengashiga kiritish;

hududlarga birlashtirilgan Ishchi guruhlar a‘zolarini belgilangan muddatlarda xizmat safariga yuborish;

Ishchi guruh tomonidan taqdim etilgan taklif va tavsiyalar asosida institut imkoniyati va vakolati doirasidagi ishlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

5. Devonxona mudirasi (D.A’zamova)ga:

mazkur buyruq va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 29-noyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini yanada barqarorlashtirish to‘g‘risida”gi 506-sonli buyrug‘i nusxalarini tegishli mas’ullarga ijro uchun yetkazilishi ta’minlansin.

6. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmasida qoldiraman.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 29-noyabrdagi 506-sonli buyrug‘i.

Rektor



I.Tuxtasinov